
BESARANGDA UNIVERSAL SPORT MAYDONCHASI BUNYOD ETILDI

Prezidentimizning 2022 yil 11 apreldagi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida mamlakatimizda “Besh tashabbus olimpiadasi” shiori ostida musobaqalar o‘tkazilib kelinmoqda.

2022 yilda o‘tkazilgan ushbu musobaqaning Respublika bosqichida Besarang MFYdagi sportchi qizlar “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida sportning Stritbol turi bo‘yicha 27-30 yoshlar toifasida birinchi o‘rinni egallagan. Shu munosabat bilan musobaqa g‘oliblari sanalmish Odina Ahmadaliyeva, Fotimaxon Ismoilova, Gavharoy Nizomova hamda Mavludaxon Abdulxamidovalarga o‘zlari istiqomat qilayotgan Besarang mahallasiga universal sport maydonchasi qurilishi bo‘yicha sertifikat topshirilgan.

Ayni damda mahallada barcha sharoitlarga ega zamonaviy universal sport maydonchasi bunyod etilib, yoshlar ihtiyoriga topshirildi. Sport maydonchasidan yoshlar muntazam shug‘ullanib, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazmoqdalar.

2023-07-20 13:26:19